XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 31-iyul VI-68-95-3-45-K/24 G‘allaorol tumani

Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida, tuman mahalliy budjetiga “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6, 25-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

qaror qiladi:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Turdimuratov)ga 2024 yilda “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan, **76,0 (yetmish olti) mln.so‘m** miqdoridagi mablag‘ni tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga ajratish vazifasi yuklatilsin.

2. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (A.Suyunov) tuman mahalliy budjetidan ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (B.Sattarov) mahalliy budjetdan ajratiladigan mablag‘larni tegishli tashkilotlar hisob raqamiga o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlasin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH